



INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING ILG‘OR XORIJY TAJRIBALARI VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

*Xalilova Jismona Davron qizi
Toshkent moliya instituti talabasi*

Annotatsiya: Maqolada rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalar faolligi va investitsion muhit jozibadorligini yanada oshirish bilan bog‘liq usul va vositalarning mazmun-mohiyati, ulardan O‘zbekiston sharoitida foydalanish istiqbollari bo‘yicha mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so’zlar: investitsiya, investitsion faoliyat, investitsion muhit, investor, xorijiy investitsiyalar, jahon iqtisodiyoti, tashqi savdo, iqtisodiy zona.

Tadqiqot metodologiyasi :

Investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilg‘or xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish imkoniyatlari tahlili bo‘yicha mavjud bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarni xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish, statistik ma’lumotlarni va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraktsiyalash, ma’lumotni guruxlash, analiz va sintez, induktsiya va deduktsiya usullaridan keng foydalanilgan.

Kirish

Rivojlangan mamlakatlarda to‘plangan boy tajribalar, amalga oshirilgan islohotlar, qabul qilingan qarorlar va chora-tadbirlarning tub mohiyatini o‘rganish, yutuq va kamchiliklarini ilmiy jihatdan tanqidiy tahlil qilish milliy iqtisodiy optimizning taraqqiyoti uchun har tomonlama dastak vazifasini o‘taydi. Binobarin, xalqaro maydonda mavjud bo‘lgan boy tajribalar, zamonaviy tendensiyalar yildan-yilga takomillashib, o‘zgarib bormoqda. Shu sababli ham O‘zbekiston Respublikasi prezidenti “Toshkent xalqaro investitsiya forumi” da chet ellik investorlarga o‘z nutqlari davomida quyidagicha ta’kidladilar:

”Yangi O‘zbekistondagi biznes uchun beqiyos imkoniyatlarni kashf qilasizlar. Sizlar o‘zingiz istagan tinchlik va barqarorlik, qulay investitsiya muhiti hamda zarur kafolatlarni aynan bizning yurtimizda topasiz. Yangi O‘zbekiston Sizning biznes faoliyatingizda alohida yorqin iz qoldiradigan makon bo‘lib xizmat qiladi, deb ishonaman” [1].



Xususan, investitsiyalarni jalg etish, ularni eksport va import qilish, investorlarning manfaatlarini himoya qilish, investitsion faollik va raqobatbardoshlikni oshirish bilan bog‘liq masalalar shular jumlasiga kiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

A.Sh.Bekmurodov fikricha, to‘g’ridan-to‘g’ri xorijiy investitsiyalar-investorga korxonani nazorat qilish huquqini beruvchi kapitalni to‘g’ridan-to‘g’ri eksport qilish va shu bilan karxona asosiy bosh kompaniyasining xorijiy sho‘ba korxonasiga aylanadi [2].

B.A.Vaxobov esa to‘g’ridan-to‘g’ri xorijiy investitsiyalar-investorga iqtisodiy faoliyati ustidan ta’sirchan nazorat etish imkonini beradigan investorning uzoq muddatli, firmaning kamida 10 foizi ulushiga yoki aksiyadorlar kapitaliga egalik qilishiga imkon beradigan investitsiyalardir, deb ta’kidlaydi [3].

A.S.Azizov to‘g’ridan-to‘g’ri xorijiy investitsiyalar atamasini, avvalo, xo‘jalik faoliyati ustidan qisman yoki to‘liq nazoratni ta’minalash orqali xorijiy korxonaga investitsiya sifatida tushunish kerakligini ta’kidlaydi[4].

To‘g’ridan-to‘g’ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning asosiy omillari bozorlar va resurslarga kirishdir. Chet el kapitalining faqat ayrim mintaqalarda va ayrim tarmoqlarda kontsentratsiyasi boshqa mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanishini cheklaydi, birinchi navbatda sanoati rivojlanmagan mintaqalar iqtisodiyotiga ta’sir qiladi [5]

Tahlil va natijalar

Jahonda xorijiy kapitalni jalg etish bo‘yicha mamlakatlararo keskin kurash ketmoqda. Xorijiy investitsiyalar hajmi, uning sifati va qulay shartlardan foydalanish borasida rivojlangan mamlakatlarda yildan-yilga investitsion muhit jozibadorligini ta’minalashga xizmat qiladigan innovatsion instrumentlarning turli ko‘rinishlari yaratib kelinmoqda. Shular qatorida, iqtisodiy rivojlanishi boshqa davlatlarga qaraganda tez sur’atlarda o‘sib borayotgan, tovar va xizmatlari dunyoning barcha o‘lkalarida tarqalgan, bugungi kunda uchta eng ko‘p tarqalgan so‘z – «Made in China», deya e’tirof etilayotgan Xitoyning tajribasini ko‘rib chiqamiz.

Xitoyda davlat tomonidan investitsiyalar sohasida amalga oshirilgan islohotlar, qabul qilingan tizimli chora-tadbirlar, ishlab chiqilgan dasturlar va loyihalar tufayli xalqaro bozorlarni zabd etishga muvaffaq bo‘lindi.

Mazkur davlat 1970-yildayoq mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirishni davlat siyosati darajasidagi eng muhim vazifalardan biri sifatida ko‘targan edi. Birinchilardan bo‘lib «maxsus iqtisodiy zonalar»ni tashkil etish bo‘yicha qarorlar qabul qildi va ularning rivojlanishi uchun barcha sharoitlarni muhayyo etdi.



Guandong va Fuyan maxsus iqtisodiy zonalarida liberal soliq tizimi joriy etildi, turli xildagi ma'muriy to'siqlar bartaraf etildi hamda biznesni ochish, uni yuritish bo'yicha bir qator taomillar soddalashtirildi. Ushbu zonalarning rivojlanishiga Gonkong va Tayvan davlatlaridan kiritilgan investitsiyalar qo'l keldi.

XX asrning oxirlarida ushbu zonalarga kiritilgan investitsiyalar hajmi jami xorijiy investitsiyalarning 50 foizini tashkil etgan. shuningdek, Xitoy rahbariyati tomonidan rivojlanishning istiqbolli yo'naliishlari sifatida yengil sanoat va elektronika sohalari tanlab olindi. Ularning to'laqonli rivojlanishi, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va zaruriy resurslarni xarid qilishi uchun davlat tomonidan subsidiyalar tizimi va «eksport uchun tarmoq» dasturi ishlab chiqildi. Agar kompaniyalarning 25 foizi xorijiy investorlarga tegishli hamda «tarmoq»qa a'zo bo'lsa, Xitoy Markaziy banki tomonidan maxsus imtiyozli kreditlar berilishi yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunda mazkur «tarmoq»qa a'zo bo'lib kirgan kompaniyalar jami eksportning 80 foizini ishlab chiqarmoqda. Shu bilan birga, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish korxonalariga zarur bo'ladigan va chetdan olib kiriladigan import resurslariga bojxona imtiyozlari ham taqdim etildi.

Xitoyning tez sur'atlarda rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan yana bir muhim omil – investorlar uchun zarur bo'ladigan, hududlarning imkoniyatlari va salohiyatlarini namoyon etadigan ma'lumotlar bazasini (pasportni) ishlab chiqqanligi va arzon ishchi kuchiga egaligi bilan belgilanadi. Ushbu baza internet-resurs sifatida ochib qo'yilganligi, Xitoy korxonalari uchun xorijiy investitsiyalarning oqib kelishini va biznes hamkorlikning kuchayishini ta'minladi.

Bugungi kunda Xitoyning jahon iqtisodiyotidagi mavqeini hamda iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda oshishini ta'minlashga xizmat qilgan omil ham, aynan uning ochiqligi, sog'lom imiji va investitsion jozibadorligidir. Ammo, bugungi kun ekspertlarining fikrlariga ko'ra, Xitoyning ochiqligi, jahon hamjamiyatiga yuqori sur'atlarda integratsiya bo'lib borayotganini mamlakat fuqarolari va chet el jamoatchiliqi salbiy holat sifatida har xil qabul qilishmoqda. Bularning hammasi zamonaviy Xitoy to'g'risida, u yerda amalga oshirilayotgan jarayonlarni anglamasdan turib chiqarilayotgan xulosalardir desak, to'g'ri bo'ladi. Zero, Xitoy rahbariyati tomonidan quyidagi jihatlarga ongli tarzda alohida e'tibor qaratilmoqda:

- tashqi dunyo bilan Xitoyning mustahkam aloqasini o'rnatish;
- tadbirkorlar bilan davlatning birdamligi va ishonchli sherikchiliginini ta'minlash;



– jahon hamjamiyati tasavvurida Xitoyning ishonchli hamkor imijini hosil qilish;

– ishlab chiqarishning yuqori mahsuldorligi bilan rivojlanish emas, balki taraqqiyotning innovatsion asosda qurilishini ta'minlash va b.

Aynan shu jihatlarni e'tiborga olib, 2004 yildan Xitoy davlati mamlakatning investitsion jozibadorligini yanada oshirish muammosini hal etish bilan faol shug'ullana boshladi. oxirgi o'n yilda Xitoy jahon hamjiyati oldida o'zining nufuzi va obro'sini ko'tarish bo'yicha ko'plab tizimli tadbirlarni amalga oshirdi. U bir qancha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar: OTHT – Osiyo Tinch okeani Hamkorlik Tashkiloti, SHHT – Shanxay Hamkorlik Tashkiloti bilan iqtisodiy hamkorlik bo'yicha, shuningdek, erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish bo'yicha xitoy-arab, xitoy-afrika hamkorlik aloqalarini rivojlantirib kelmoqda.

Xitoy davlati Butunjahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishi bilan ko'plab sohalarda tub islohotlarni amalga oshirdi. Xususan, quyidagi muhim yo'nalishlarda: turli xildagi tariflarni pasaytirish; iqtisodiyotning yetakchi sohalari, xususan xizmatlar: telekommunikatsiya, sug'urta, bank, savdo, logistika sohalariga yo'naltiriladigan investitsiyalarga to'siq va cheklovlnarni olib tashlash bilan bog'liq chora-tadbirlarni keltirish mumkin. Ushbu yaratilgan imkoniyat va sharoitlar tufayli nafaqat transmilliy kompaniyalar, balki kichik va o'rta hajmdagi xorijiy kompaniyalarning Xitoy davlatiga investitsiya kiritish bilan bog'liq faolligi yanada oshdi. shular tufayli Xitoyga kiritilgan TTXI hajmining oshishi yildan-yilga o'sib bordi. JST a'zo bo'lishi natijasida 2006 yildan xorijiy bank muassasalari uchun geografik va operatsion cheklovlar olib tashlandi. Buning oqibatida xorijiy banklarning shu'ba muassasalari tashkil etildi va ular tomonidan Xitoyning istalgan hududida rezidentlar uchun yuanda operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq tartiblar o'rnatildi.

Taqdim etilgan imkoniyalar va imtiyozlarlardan Angliya banki – Standart Chartered Bank birinchilardan bo'lib foydalandi hamda boshqa bir qator banklarning: Citigroup (AQSh), HSBC (Angliya), ABN AMRO (nidelandiya), Bank of East Asia (Gonkong) va HangSeng Bank (Gonkong) banklarining kirib kelishini ta'minladi. Shuningdek, Xitoy xalqaro kapital ayirboshlashda, xususan, portfel va boshqa investitsiyalar bo'yicha ishtirokini yildan yilga oshirib bormoqda.

Xitoy Yaponiyadan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. 2015 yilda «katta Xitoy» jahon iqtisodiyotining kreditori sifatida namoyon bo'lган (3 trl. dollar). Jahon iqtisodiyotida xalqaro kapital ayirboshlashda yirik qarzdor mamlakat sifatida AQSh



e'tirof etiladi. 2015 yilning oxirida uning majburiyatları 7 trl. dollarni, 2016 yilning o'rtalarida 8 trln. dollarni, ya'ni YaIMning 46 foizini tashkil etgan.

TTXI hisobiga tashkil etilgan loyihalarning 69 foizi sanoat sohasiga to‘g‘ri kelgan. Yevropa mamlakatlari kiritilgan TTXI katta qismi yevropa mamlakatlari (54 foizi), undan keyingi – ikkinchi o‘rin AQshga to‘g‘ri keladi. AQSh tomonidan yo‘naltirilgan investitsiyalarning aksariyati moliyaviy xizmatlar va biznes uchun ko‘rsatiladigan xizmatlarni tashkil etadi. Shuningdek, Xitoyning ham yevropada investitsion loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha tutgan o‘rni kengayib, yiliga 2 foizga (o‘rtacha) ko‘tarilgan (2014 yilga nisbatan). Umumiy hisobda 2015 yilda yevropada tashkil etilgan investitsion loyihalarning 238 tasi va ularning hisobiga yaratilgan 8917 ish o‘rinlari Xitoy investorlari tomonidan amalga oshirilgan.

Valyuta kurslarining maqbullahsgani, neft narxining arzonlashgani yevropa sanoatining raqobatbardoshligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Yevropa mamlakatlari ichida Buyuk Britaniya 2015 yilda biznesga moliyaviy xizmat ko‘rsatish, chakana savdo va mehmonxona xizmatiga yo‘naltirilgan TTXI hajmi bo‘yicha birinchilikni qo‘lga kiritgan. 2015 yilda biznesga moliyaviy xizmat ko‘rsatish sektorida tashkil etilgan loyihalar soni 2014 yilga nisbatan 22 foizga oshib – 496 tani tashkil etgan. Germaniyada esa loyihalar soni transport va kommunikatsiya sohasida yuqori bo‘lgan.

O‘tkazilgan so‘rovnoma ko‘ra (2016 yil), eng yuqori inestitsion jozibadorlikka ega bo‘lgan shaharlar ichida London birinchi o‘rinni egallagan. Keyingi navbatdan Parij, Berlin, Amsterdam, Myunxen, Frankfurt, Madrid va Barselona joy olgan.

So‘rovnomaning tahliliga ko‘ra, investorlar telekommunikatsiya, transport va logistika infrastrukturasi bo‘yicha yuqori bilim va tajribaga ega bo‘lgan aholining mavjudligi, barqaror siyosiy tizim, huquqiy va tartibga solib turiladigan muhitning yaratilgani yevropa iqtisodiyotining kuchli tomonlaridan biri sifatida baholashgan. Anketaga kiritilgan – yevropa qanchalik darajada investorlar uchun jozibali?, Degan savolga respondentlarning bergen javoblari quyidagicha namoyon bo‘lgan:

Kuchli tomonlari:

- telekommunikatsiya infrastrukturasi – 82 foiz;
- mahalliy aholining professionallik darjası – 79 foiz;
- transport va logistika infrastrukturasi – 77 foiz;
- siyosiy, huquqiy muhit – 68 foiz.

Yaxshilash (takomillashtirish) lozim bo‘lgan tomonlari:



mehnat qonunchiligining qayishqoqligi – 48 foiz;
ishchi kuchining narxi – 44 foiz;
kompaniyalarga belgilangan soliqlar – 43 foiz.

So‘rovnoma da ishtirok etgan respondentlarning 35 foizi yaqin istiqbolda yevropa iqtisodiyotining rivojlanishini ta’minlaydigan asosiy drayver sifatida raqamli sanoatni qayd etishgan. Shuning uchun ham keyingi besh yilda YI ushbu sanoatga 50 mld. yevro mablag‘ sarflashni rejalashtirgan.

Rivojlanish darajasi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarni namoyon etgan, o‘zining boy tajribasi va intellektual salohiyatining yuksakligi bo‘yicha dunyo mamlakatlari ichida yuqori o‘rnlarda turadigan, aholisi soni unchalik ham katta bo‘limgan, ammo kompyuter dasturlarini yaratish, telekommunikatsiya sohasida salmoqli nufuzga ega bo‘lgan, Jahon banki tomonidan e’lon qilingan hisobotlarda jon boshiga YaIM ishlab chiqarish bo‘yicha (xarid quvvati pariteti bo‘yicha) 3-o‘rinda turgan, «osiy yo‘lbarslari», deb nom olganlardan biri bo‘lmish Singapur davlatida ham investitsion muhitni yaxshilash, uning jozibadorligini oshirish yuzasidan boy tajriba to‘plangan.

Singapur davlatining rivojlanish yo‘li, qo‘lga kiritgan «iqtisodiy mo‘jizasi» bilan shug‘ullangan barcha olimlarning fikri bir muhim nuqtaga borib taqaladi. U ham bo‘lsa, Singapurda qulay investitsiya muhitining yaratilganligi. Aynan ushbu holat tufayli investorlar tomonidan bu yangi davlatga ko‘plab loyihibar kiritish amalga oshdi, YaIM hajmi yildan-yilga keskin ortib bordi. Bugungi kunda ham investorlar tomonidan Singapur davlatiga hech ikkilanmasdan kapital mablag‘lar yo‘naltirib kelinmoqda. U yerdagi investitsion muhit jozibadorligi donor mamlakatlarning doimiy qiziqishiga sabab bo‘lmoqda.

Investitsion muhitning sog‘lomligi, jozibadorligini davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini aks etuvchi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali ham baholash mumkin.

Davlatning tashqi savdodagi ishtiroki va o‘rnii ham uning iqtisodiy rivojlanganlik darajasini belgilaydi. Singapur davlati tabiiy resurslarga boy bo‘lmasada, o‘z ehtiyojini ularni import qilish orqali qondiradi. Ishlab chiqargan tovar va xizmatlarining qariyb 50 foizini dunyo bozoriga eksport qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, valyuta tushumlarining oshishini ta’minlaydi.

**1-jadval**

Rivojlangan mamlakatlarga yo‘naltirilgan investitsion loyihalar va tarmoqlar tasnifi tasnifi [6].

Lider tarmoqlari	Tarmoqlar ichidagi sektorlar bo‘yicha liderlar			Lider davlatlar		
	Sektorlar	Loyiha lar	O‘zgari shi (foizda)	Davlatla r	Loyiha lar	O‘zgari shi (foizda)
Ishlab chiqarish	Mashina va jihozlar	360	15	Germaniya	459	-1
	Avtomobil sanoati	322	12	Buyuk Britaniya	355	7
	Oziq-ovqat sanoati	224	-2	Fransiya	333	-6
	Kimyo sanoati	218	12	Rossiya	171	80
	Famasevtika	160	-5	Belgiya	130	2
Moliyaviy xizmatlar va biznesga ko‘rsatiladi gan xizmatlar	Dasturiy ta’milot	694	6	Buyuk Britaniya	496	22
	Biznesga ko‘rsatiladigan xizmatlar	476	27	Germaniya	322	18
	Moliyaviy vositachilik	198	-8	Fransiya	161	-9
	Ilmiy-tadqiqot ishi	137	20	Nederlandiya	83	65
	Sug‘urta va pensiya ta’miloti	79	-	Irlandiya	73	38
Transport va kommunikatsiya	Yer usti transporti	127	95	Buyuk Britaniya	61	2
	Telekommunikasiya va pochta	80	-2	Fransiya	57	36
	Aviatransport	56	81	Nederlandiya	40	135



	Suv transporti	46	92	Ispaniya	39	11
	Boshqa transport xizmatlari	138	-3	Germaniya	81	72
Chakana savdo va mehmonxon a xizmati	Reteyl	95	25	Buyuk Britaniya	43	26
	Ulgurji savdo	56	44	Germaniya	30	-19
	Mehmonxona va restoranlar	6	-14	Fransiya	15	88
	Avtotransport savdosi va ta'miri	6	-50	Finlandiya	12	500
				Ispaniya	12	33

Eksport tarkibida eng katta ulushni mashina va transport jihozlari tashkil etadi (46,3 foiz). Eksportning asosiy iste'molchilari Xitoy (12 foiz), Malayziya (12 foiz), Gonkong (11 foiz) va Indoneziya (10 foiz) davlatlari hisoblanadi.

Xalqaro savdoni amalga oshirish, eksport va import operatsiyalarining hajmi, unda davlatning ishtirokini tahlil qilish va baholash bo'yicha Butun jahon iqtisodiy forumining tavsiyasiga ko'ra davlatning xalqaro savdodagi ishtiroki va aloqadorligini aniqlaydigan indeks (The Global Enabling Trade Index) bo'yicha har yili jahon reytingi ko'rsatkichlari e'lon qilinadi. Ushbu indeks orqali davlatlarning xalqaro savdoni amalga oshirish borasida yaratib bergen sharoiti, olib borayotgan iqtisodiy siyosati, tovar va xizmatlarni nest-nobudsiz iste'molchilarga yetkazib berish va bojxona imtiyozlari darajasiga baho berish mumkin.

Global raqobatbardoshlik indeksining tarkibi: institutlarning sifati, infrastruktura, makroiqtisodiy barqarorlik, sog'liqni saqlash va boshlang'ich ta'limga, oliy ta'limga va qayta tayyorlash, tovar va xizmatlar bozorlarining samaradorligi, mehnat bozorining samaradorligi, moliya bozorlarining rivojlanganligi, texnologik taraqqiyot darajasi, ichki bozor ko'lami, kompaniyalarning raqobatbardoshligi, innovatsion salohiyat bilan bog'liq ko'rsatkichlardan iboratdir.

Jahon banki guruhi va Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan e'lon qilinib kelinayotgan Doing Business indeksida 10 yildan bo'yon Singapur 1-o'rinni egallab kelmoqda. olib borilgan izlanishlar va o'tkazilgan so'rovnomalariga ko'ra, Singapurda biznesni ochish va uni yuritish bo'yicha yaratilgan sharoitlar va yuqori natijaga erishishda davlat siyosiy tizimining barqarorligi, samarali iqtisodiy siyosat,



yuqori investitsion imkoniyatning mavjudligi va infrastrukturaning rivojlanganligi ta'sir ko'rsatgan.

Uchinchi yana bir muhim ko'rsatkich bo'lmish – mamlakatlarning Iqtisodiy mustaqillik indeksi bo'yicha ham Singapur yuqori natijalarni qo'lga kiritgan. Mazkur agregatlashgan indeks 10 ta ko'rsatkich asosida chiqariladi. Bular: moliyaviy mustaqillik, investitsiyaviy mustaqillik, savdo mustaqilligi, monetar mustaqillik, mehnat mustaqilligi, tarbirkorlik mustaqilligi, hukumatning ishtiroki, fiskal mustaqillik, korrupsiyaga qarshi mustaqillik, mulk daxlsizligi (mustaqilligi).

Yuqorida qayd etilgan tajribalarni o'rganish asnosida aniq bo'ldiki, Singapur tajribasini O'zbekiston sharoitida tatbiq etish, ulardan foydalanish kelajakda mamlakatning bundanda yuqori sur'atlarda rivojlanishini, aholining daromad manbai ko'payishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan so'rovnomalarda faol ishtirok etish, jahon mamlakatlarining investitsion jozibadorligini ko'rsatadigan reytinglarning barchasida O'zbekistonning ham ishtirokini ta'minlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish kelajakda investorlarning investitsiyalarni kiritish bo'yicha qarorlariga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, xorijiy investitsiyalarning mamlakatga kirib kelishini ta'minlashda hududning investitsion muhit jozibadorligi asosiy o'rinni egallaydi. shu munosabat bilan, keyingi sahifalarda Irlandiyaning tajribasini ham o'rganib chiqsak.

Irlandiyaning rivojlanishi va iqtisodiyotiga oqib borayotgan investitsiyalar hajmining yuqori bo'lishligini davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning to'g'ri va samarali yuritilayotgani bilan izohlash mumkin. Bugungi kunda mazkur davlatda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning 2/3 qismi xorijiy kompaniyalarga to'g'ri keladi.

Xorijiy investitsiyalar tufayli iqtisodiy o'sish ta'minlanib kelinmoqda. Jalg etilgan va kirib kelgan barcha investitsiyalar erkin iqtisodiy zonalar: shennon va Dublin orqali amalga oshirildi.

Investorlarga 0 qiymat bo'yicha soliq imtiyozlari taklif etildi. Buning natijasida, Irlandiyada jahonga mashhur bo'lgan IT-korporatsiyalar: Apple, Google, Amazon, Microsoft, Facebook, Oracle, IBM, Intel, Dell, Hewlett-Packard; jahon farmasevtika bozorida yuqori mavqega ega bo'lgan kompaniyalar: Glaxo Smith Kline, Pfizer, Novartis, Allergan, Merck&Co, Schering-Plough hamda meditsina bo'yicha yuqori texnologiyali jihozlarni ishlab chiqaruvchi yirik korxonalar: Johnson&Johnson, Bausch&Lomb, Abbott, Boston Scientific o'z filiallarini, shtab-uylarini ochishga muvaffaq bo'ldi.



Irlandiyada davlat tomonidan investitsion muhitni yanada yaxshilash va xorijiy investorlarning bemalol faoliyat olib borishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalar, chora-tadbirlar, investitsion dasturlar ishlab chiqilishi ilmiy asosda olib boriladi. Investitsion faollikni oshirish maqsadida mamlakat hududlarida bir qancha ilmiy tekshirish institutlari, texnoparklar va texnologik klasterlarning faoliyat olib borishi ta'minlangan.

Yuqorida qayd etganimizdek, Agentlik tomonidan xorijiy investorlar va xorijiy kompaniyalar uchun soliqlar bo'yicha bir qator imtiyozlar taqdim etiladi.

Xulosa

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi, bosib o'tgan yo'li, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash yo'lida mamlakatning investitsion muhitini sog'lomlashtirish borasida qabul qilgan qonunlari, ishlab chiqqan qarorlarini o'rganish, investitsiyalari kengroq jalb etish bo'yicha ishlab chiqqan usul va uslublarining kerakli jihatlarini O'zbekiston sharoitiga tatbiq etish muhim masalalardan hisoblanadi. Zero, to'plangan tajribalarni mamlakatning o'ziga xos xususiyat larini inobatga olgan holda tatbiq etilishi, tavakkalchilikni pasaytirishga, mavhumlikning oldi olinishiga, yuqori samaradorlikning ta'min etilishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev, "Shavkat Mirziyoyev investorlarga 5 ta yo'nalishda hamkorlikni taklif qildi", 27.04.2023, <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-investorlarga-5-ta-yonalishda-hamkorlikni-taklif-qildi>.
2. A.Sh.Bekmurodov. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Iqtisodiyot. – Т. – О'кув юълланма.
3. A.B.Vaxobov. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Moliya, 2010. – Т. – О'кув юълланма.
4. A.S.Azizov. (2021) To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishda moliyaviy iqtisodiy va mamlakat xatarlarini kamaytirish. Iqt. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) diss. Avtoref. – Toshkent: 2021. – 11 b.
5. G.M.Galeeva and E.N.Kadeeva. Problems of attracting foreign direct investment into the regional economy. Journal of Physics: Conference Series, 1730(2021) 012118, 2020. – P. 8.
6. EY Global Investment Monitor, 2019.